



MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING TASHQI HAMKORLIK ALOQALARINING TARIXIY TAHLILI

Xamrayeva Feruza Raximovna

Navoiy viloyati Karmana tuman 2-son politexnikum

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası” tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikdan so‘ng tashqi siyosatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. 1991–2023 yillar oralig‘ida olib borilgan diplomatik faoliyat, xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlar, strategik hamkorlik va “Yangi O‘zbekiston” tashqi siyosiy yondashuvi tarixiy manbalar va hujjatlar asosida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, tashqi siyosat, mustaqillik, diplomatiya, xalqaro tashkilotlar, strategik sheriklik, Yangi O‘zbekiston, mintaqaviy xavfsizlik.*

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация: *В данной статье поэтапно анализируется процесс формирования и развития внешней политики Республики Узбекистан после обретения независимости. Освещены дипломатическая деятельность, отношения с международными организациями, стратегические партнерства и внешнеполитический подход периода «Нового Узбекистана» в 1991–2023 годах на основе исторических источников и документов.*

Ключевые слова: *Узбекистан, внешняя политика, независимость, дипломатия, международные организации, стратегическое партнёрство, Новый Узбекистан, региональная безопасность.*

A HISTORICAL ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S FOREIGN RELATIONS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation: *This article presents a step-by-step analysis of the formation and development of the foreign policy of the Republic of Uzbekistan after gaining independence. It highlights diplomatic activities, relations with international*



organizations, strategic partnerships, and the “New Uzbekistan” foreign policy approach from 1991 to 2023, based on historical sources and official documents.

Keywords: *Uzbekistan, foreign policy, independence, diplomacy, international organizations, strategic partnership, New Uzbekistan, regional security.*

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 1-sentabrda o‘zining mustaqilligini e‘lon qilganidan so‘ng, respublika uchun yangi tashqi siyosiy strategiyani ishlab chiqish ehtiyoji tug‘ildi. O‘tgan asr oxiri O‘zbekiston Sovet Ittifoqining tarkibiy qismi bo‘lgan davrda mustaqil tashqi siyosat yuritish huquqiga ega emas edi. 1991-yildan boshlab esa O‘zbekiston o‘zining mustaqil tashqi aloqalarini o‘rnatishga kirishdi.

Davlatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq tashqi siyosatda asosiy vazifa xalqaro maydonda O‘zbekistonni suveren davlat sifatida tan oldirish, jahon davlatlari bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatish, xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lish, investitsiyalarni jalb etish va tashqi iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish asosiy masala bo‘ldi. Shu yo‘nalishda olib borilgan siyosat natijasida 1992-yilga kelib O‘zbekiston dunyoning 100 dan ortiq davlati bilan diplomatik aloqalar o‘rnatdi(1,29). O‘zbekiston mustaqilligining ilk yillarida olib borilgan tashqi siyosiy faoliyat tufayli davlatning xalqaro huquq subyekti sifatidagi maqomini mustahkamlandi. Turtimizning tashqi siyosatdagi asosiy tamoyillari davlat mustaqilligining dastlabgi hujjatlarida, xususan, 1992-yil 2-martda qabul qilingan BMTga a‘zo bo‘lish loyihasida va O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatiga doir Prezident farmonlarida o‘z ifodasini topgan(2). 1993-yil 31-avgustda qabul qilingan "O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosati kontsepsiyasi" tashqi aloqalar uchun nazariy asosi bo‘lib xizmat qildi(3). Tashqi siyosatning dastlabki huquqiy asoslari mustaqillikning muhim siyosiy hujjatlarida belgilab berilgan bo‘lib, bu O‘zbekistonning xalqaro maydondagi yo‘nalishini aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, 1993-yilgi "Tashqi siyosat kontsepsiyasi" nazariy asosi sifatida tashqi aloqalarni izchil va barqaror yuritishga zamin yaratdi.



I.A. Karimov rahbarligida olib borilgan tashqi faol siyosat "ochiqlik", "betaraflik" va "teng huquqlilik" tamoyillariga asoslangan edi. Ushbu siyosat orqali O'zbekiston nafaqat yaqin qo'shni davlatlar, balki dunyoning eng yirik siyosiy va iqtisodiy markazlari – AQSh, Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi bilan ham strategik sheriklik aloqalarini rivojlantirdi(4,65). O'zbekistonning mintaqaviy integratsiya va xalqoro tashkilotlardagi faolligi ham ko'zga ko'rinarli tarzda olib borildi, jumladan, 1996-yilda Shanxay beshligi tashkil qilinib, keyinchalik 2001-yildan Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga aylangandi. Ushbu jarayonda, O'zbekiston ham mazkur tashkilotning a'zolaridan biri sifatida muhim tashqi faoliyat olib bordi(5), 1994-yildan boshlab "Buyuk Ipak yo'li"ni qayta tiklash konsepsiyasi asosida xalqaro transport va tranzit aloqalarini rivojlantirishga e'tibor qaratdi. "Toshkent – Termiz – Mozori Sharif – Hirot" yo'nalishi, "Toshkent – Andijon – O'sh – Erkinobod" yo'nalishlari buning yorqin misolidir(6) asrning oxiriga kelib MDH,YXHT, IHT, OIC, TURKSOY kabi tashkilotlar bilan ham hamkorlik aloqlarini yo'lga qo'ydi.

2006–2016-yillarda tashqi siyosatda nisbiy yopiq yondashuv ustuvor bo'ldi. Bu yillar davomida davlat ichki islohotlarga ko'proq urg'u berdi. Ammo bu davrda ham strategik hamkorliklar, xususan, energetika, neft-gaz, yengil sanoat, ta'lim sohalarida Germaniya, Janubiy Koreya, Malayziya, Yaponiya kabi mamlakatlar bilan muhim bitimlar imzolandi(7). Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining o'ziga xos jihati — ko'p vektorli hamkorlikni chuqurlashtirish, ya'ni bir vaqtning o'zida G'arb, Sharq, Islom dunyosi va mintaqaviy tashkilotlar bilan parallel hamkorlik olib borish siyosatini kuchaytirish jarayoni 2022-yildan boshlandi(8) Yevropa Ittifoqi bilan kengaytirilgan sheriklik loyihasi bunga misol bula oladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashqi siyosatdagi faolligi “Yangi O'zbekiston”da 2016-yildan yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, "Yaqin qo'shnilar bilan do'stlik" tamoyili(9,88)ga asoslangan siyosat orqali O'zbekiston Afg'oniston bilan barqaror hamkorlikni ta'minlash, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston bilan suv, chegara va savdo masalalarini hal etish bo'yicha tashabbus ko'rsatib muhim loyihalarni ilgari surdi.



Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O‘zbekiston tashqi siyosati evolyutsion rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi. Dastlab tan olinishga, keyin barqaror aloqalarni shakllantirishga, so‘ngra esa ko‘p tomonlama va manfaatli hamkorlikka yo‘naltirilgan siyosat bugungi kunda "Yangi O‘zbekiston"ning xalqaro nufuzini oshiruvchi muhim omillardan biriga aylandi. Siyosat 2016 yildan boshlab tashqi siyosatda uyangicha yondashuvlar shakllanib, “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasiga muvofiq ochiqlik, maintaqaviy yaqinlashuv va global jarayonlarda markaziy o‘ringa chiqdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qar.: Karimov I.A. Ўзбекистон ўз истиқлол ва тараққиёт йўлида. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – Б. 29.
2. Qar.: Ўзбекистон Республикасининг БМТга аъзо бўлиши ҳақидаги қарор. // Халқ сўзи, 1992
3. Qar.: O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati konsepsiyasi. – Toshkent, 1993.
4. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizlik йўлида. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 64–65.
5. Фармон: «Ўзбекистон Республикасининг ШХТ доирасидаги ҳамкорлиги тўғрисида» // Lex.uz
6. Karimov I.A. Буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 106–108.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti: www.president.uz (2010–2016 yillardagi tashqi siyosatga oid farmonlar)
8. Yakubov A. O‘zbekiston tashqi siyosatining shakllanishi. Toshkent: “Akademyashr”, 2005.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangilaniш va taraqqiёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 88–90